

AKNE VULGARIS KASALLIGI ALOMATLARI KELIB CHIQISH SABABLARI VA DAVOLASH USULARI

Бойқобиллов Соатмурод Шухрат ўғли

Термиз иқтисодиёт ва сервис университети

E-mail: soatmurad_boyqobilov@tues.uz

ORCID: 0009-0007-8029-8984

Mingto'rayeva Dilnura Faxriddinovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada akne vulgaris kasalligining etiologiyasi, patogenez, klinik belgilari va davolash usullari o'rganildi. Tadqiqot davomida 5 nafar bemor kuzatilib, ularning klinik holati va davolash samaradorligi tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kombinatsiyalangan terapiya akne vulgarisni davolashda eng samarali usul bo'lib, yallig'lanish belgilarini kamaytirish va yangi toshmalar paydo bo'lishini sekinlashtirishda yuqori natija berdi.

Kalit so'zlar:

Akne vulgaris, etiologiya, patogenez, klinik belgilar, davolash, kombinatsiyalangan terapiya, dermatologiya

Аннотация :

В данной статье изучены этиология, патогенез, клинические проявления и методы лечения акне вульгарис. В ходе исследования были обследованы 5 пациентов, проведён анализ их клинического состояния и эффективности лечения. Полученные результаты показали, что комбинированная терапия является наиболее эффективным методом лечения акне вульгарис, способствуя снижению воспалительных проявлений и уменьшению появления новых высыпаний.


Ключевые слова :

акне вульгарис, этиология, патогенез, клинические проявления, лечение, комбинированная терапия, дерматология

Asosiy qism

Akne vulgaris — bu surunkali yallig'lanishli teri kasalligi bo'lib, asosan yog' bezlari va soch follikulalarining zararlanishi bilan xarakterlanadi. Ushbu kasallik ko'proq o'smirlar va yoshlar orasida uchraydi, ammo kattalarda ham kuzatilishi mumkin.

Akne rivojlanishida bir nechta omillar muhim rol o'ynaydi, jumladan yog' bezlari faoliyatining oshishi, follikulyar giperkeratoz, bakterial infeksiya (*Cutibacterium acnes*) va yallig'lanish jarayoni. Ushbu omillar birgalikda komedonlar, papulalar, pustulalar va og'ir hollarda tugun va kistalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Akne nafaqat terining tashqi ko'rinishiga, balki bemorning psixo-emotsional holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Gormonal o'zgarishlar, ayniqsa androgenlar miqdorining oshishi yog' bezlari faoliyatini kuchaytiradi. Bundan tashqari, stress, noto'g'ri ovqatlanish (yuqori glikemik indeksli mahsulotlar), kosmetik vositalar va irsiy omillar ham akne rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy adabiyotlarda akne vulgarisni davolashda topikal retinoidlar, antibiotiklar, benzoyl peroksid va gormonal terapiya samarali ekanligi qayd etilgan. So'nggi yillarda kombinatsiyalangan davolash usullari keng qo'llanilmoqda.



Etologiyasi (sabablari)

Akne ko'p omilli teri kasalligi. uning rivojlanishida bir nechta asosiy sabablar muhim rol o'ynaydi. Eng asosiy omillardan biri

gormonal o'zgarishlar o'smirlik davrida androgen gormonlar miqdorining oshishi yog' bezlari faoliyatini kuchayishi va terida yog' ko'p ajralishiga olib keladi.

follikulyar giperkeratoz natijasida yuzaga keladi, ya'ni teri hujayralari tez yangilanib, o'z vaqtida ajralmaydi va yog' bilan aralashib, komedonlar hosil qiladi.

Klinikasi :

Akne vulgaris turli klinik shakllarda namoyon bo'ladigan surunkali yallig'lanishli teri kasalligi hisoblanadi. Uning asosiy klinik belgilari terida turli xil toshmalar paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Kasallikning boshlang'ich bosqichida komedonlar (ochiq va yopiq) kuzatiladi. Ochiq komedonlar qora nuqtalar ko'rinishida, yopiq komedonlar esa oq nuqtalar shaklida namoyon bo'ladi.

Yallig'lanish jarayoni kuchayishi bilan papulalar (qizarib turgan, zich tugunchalar) va pustulalar (yiring bilan to'lgan toshmalar) paydo bo'ladi. Og'ir hollarda tugunlar va kistalar rivojlanib, ular chuqur joylashgan va og'riqli bo'lishi mumkin.

Diagnostikasi:

Toshmalar asosan yuz (peshona, burun, iyak), ko'krak va orqa sohalarda joylashadi. Ko'pchilik bemorlarda terining yog'lanishi oshgan bo'ladi.

Akne vulgarisning og'irligi yengil, o'rta va og'ir shakllarga bo'linadi. Yengil shaklda asosan komedonlar ustun bo'lsa, og'ir shaklda yallig'langan elementlar va chandiqlanish kuzatiladi.

Yangi kuzatuvlarda:

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, akne vulgaris rivojlanishida nafaqat klassik omillar, balki teri mikrobiomi, oziqlanish, stress va gigiyena kabi qo'shimcha omillar ham muhim rol o'ynaydi. Bu omillar kasallikni kompleks yondashuv asosida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Yangi kuzatuvlarda:

Telefon ekranida bakteriyalar to'planadi

Yuz bilan ko'p tegish → akne kuchayadi

Gigiyenaga rioya qilmaslik, xususan yuzga tez-tez tegish va iflos yuzalar

Ba'zi kosmetikalar teshiklarni yopadi (comedogenic effect)

Bu aknega olib kelishi mumkin

Noto'g'ri tanlangan kosmetik vositalar follikulyar teshiklarning berkilishiga olib kelib, akne rivojlanishini kuchaytiradi.

Sog'lom teri va akne vulgaris bilan zararlangan teri o'rtasida bir qator klinik va funksional farqlar mavjudligini izoxlash.

Birinchidan, teri yuzasining holati jihatidan sog'lom teri silliq, toza va yallig'lanishsiz bo'ladi. Aksincha, akneli terida komedonlar, papulalar, pustulalar va ba'zan tugunlar kuzatiladi.

Ikkinchidan, yog' bezlari faoliyati farq qiladi. Sog'lom terida yog' ajralishi muvozanatda bo'ladi, akneli terida esa yog' bezlari ortiqcha faol bo'lib, sebum ko'p ishlab chiqariladi.

Uchinchidan, teri teshikchalari (follikulalar) sog'lom odamda ochiq va normal holatda bo'ladi, akneli terida esa ular keratin va yog' bilan to'silib qoladi, bu komedonlar hosil bo'lishiga olib keladi.

To'rtinchidan, yallig'lanish jarayoni sog'lom terida kuzatilmaydi, akneli terida esa bakteriyalar ta'sirida yallig'lanish rivojlanadi.

Beshinchidan, teri mikrobiomi sog'lom terida muvozanatda bo'ladi, akneli terida esa bu muvozanat buzilib, patogen bakteriyalar ustunlik qiladi

Davolash va oldini olish

Akne vulgarisni davolashda asosiy maqsad nafaqat mavjud toshmalarni yo'qotish, balki ularning qayta paydo bo'lishining oldini olishdan iborat. Shu sababli davolash jarayoni individual yondashuv asosida olib borilishi kerak.

Zamonaviy dermatologiyada davolash faqat dorilar bilan cheklanib qolmay, balki teri muhitini normallashtirishga qaratilgan kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi. Masalan, teri yuzasidagi ortiqcha yog'ni nazorat qilish, follikulalarning ochiqqligini saqlash va yallig'lanish jarayonini boshqarish muhim hisoblanadi.

So'nggi yillarda minimal invaziv usullar ham keng qo'llanilmoqda. Jumladan, kimyoviy pilling, lazer terapiyasi va fototerapiya akne belgilarini kamaytirishda qo'shimcha samarali usul sifatida qaralmoqda. Bu usullar ayniqsa dori vositalariga to'liq javob bermagan hollarda qo'llaniladi

Akne kaalligini davoashda quyidagi usullardan ham keng qo'lamda foydalinaldi

Topikal preparatlar: retinoidlar, benzoyl peroksid

Og'iz orqali dorilar: antibiotiklar, gormonal preparatlar

Kombinatsiyalangan terapiya: bir nechta usullarni birga qo'llash

Profilaktika: terini tozalash, noto'g'ri kosmetika va yog'li ovqatni kamaytirish

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kombinatsiyalangan terapiya eng samarali usul hisoblanadi, yallig'lanish belgilarini kamaytiradi va yangi toshmalar sonini sekinlashtiradi, bu esa ushbu muammoning anchagina qismiga yechim bo'laoladi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot davomida 5 nafar bemor kuzatildi va davolandi. Ularning 2 nafari ayol 40%li yengil akne, o'rta darajadagi akne bilan 2ta bemor 40%, og'ir shakli bilan esa 1 nafar bemor 20% ko'rsatich bilan kuzatildi va davolandi. Preparatlar bilan davolangan bemorlarning 3 nafarida yallig'lanish belgilarining kamayishi va yangi toshmalar soni eng samarali tarzda asaydi. Bu esa bemorlarning 80%da sezildi. Bu tadqiqotda ko'rinib turibdiki kombinatsiyalangan terapiya akne (vulgarisni) davolashda yuqori samaradorlikka ega bo'lib, yallig'lanish belgilari kamaytirdi.

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, kombinatsiyalangan terapiya akne vulgarisni davolashda yuqori samaradorlikka ega bo'lib, yallig'lanish belgilarini kamaytiradi va yangi toshmalar paydo bo'lishini sekinlashtiradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki kombinatsiyalangan terapiya akne muammosini davolashda eng samarali usul yondashuv hisoblanadi. Og'iz orqali davolashni birgalikda qo'llash yallig'lanish belgilarini kamaytiradi va yangi toshmalarni paydo bo'lishini

sekimlashtiradi . akne vulgarisni samarali nazorat qilish uchun individual yondashuv, profilaktika choralariga rioya qilish va zamonaviy davolash usullarini uyg'unlashtirish muhim ekanligi o'rganildi .Tadqiqoning cheklangan bemorlar soni va qisqa kuzatuv vaqtiga qaramay ,bu natijalar akne davolash straegiyasini tanlashda ilmiy va amaliy ahamiyatiga eg bo'lib ,kelajakda kengroq tadqiqotlar olib borish kuzatilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Eshboyev EX, Tashkenbayeva UA. Dermatovenerologiya. Toshkent: Ijod-Press; 2019.
- 2)Feldman SR. Acne vulgaris: pathogenesis and treatment. J Am Acad Dermatol. 2016
- 3)Zouboulis CC, Katsambas AD. Pathogenesis and treatment of acne vulgaris. Clin Dermatol. 2014
- 4)James WD, Berger T, Elston DM. Andrews' Diseases of the Skin: Clinical Dermatology. 13th ed. Philadelphia: Elsevier; 2019.
- 5)Tan J, Bhate K. Acne vulgaris. BMJ. 2015